



O'ZBEKISTONDA KOVRAK O'SIMLIGINING DORIVORLIGI VA TABOBATDA ISHLATILISHI

Yaxshiboyeva Madina Ikromjon qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti
farmatsiya 106-guruh talabasi*

Ro'ziqulova Shohsanam To'lqinjon qizi

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti
farmatsiya 106-guruh talabasi*

Davlatjon Ochilov

*Samarqand davlat tibbiyot universiteti
akademik litseyi kimyo fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqola Respublikamiz xududida o'tgan asrda iqlimlashtirilgan, dorivorlik va oziq-ovqat ahamiyatiga ega kovrak va sassiq kovrak turlarini, kelib chiqish turlari geografik tarqalishi va bioekologiyasini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot natijalaridan biridir. Bu o'simlikning ildizi guli poyasi va meva tanasi shifobaxsh xususiyatiga ega. Uning shirasi tarkibidagi modda yuqori fiziologik faoliyatga ega moddalar mavjud.

***Kalit so'zlar:** kovraki, sassiq kovrak polisaxarid moddalar, yelim smola, surinkali diareya, sariq kasallik, alopesiya, biofaol birikma ko'histon xavfli o'smalar.*

Kirish. Kovrak - (Ferula) turkumi selderdoshlar (soyabonguldoshlar)- Apiaceae (Umbelliferae) oilasiga mansub bo'lib, ko'p yillik o't o'simligi. Kovrakning yer yuzida 160 dan ziyod turlari, O'rta Osiyo respublikalarida 104, mamlakatimizda esa 50 turi uchraydi. Smola - yelim olishda sassiq kovrak, Kuhiston kovragi kabi turilari ishlatiladi. [Ziradoshlar](#) (soyabonguldoshlar) [oilasiga](#) mansub [ko'p yillik o'tlar turkumi](#). [O'zbekistonda](#) 45 [turi](#) o'sadi[1-4]. Sassiq K.ning bo'yi 1m cha, [ildizi](#) sholg'omsimon, diametri 15 sm cha. [Poyasi](#) tik, yo'g'on, ichi kovak, yuqori qismi shoxlangan. Ildizoldi [barglari](#) bandli, 3 bo'lakli, poyadagilari maydaroq, ketmaket joylashgan. [To'pguli](#) yirik, sharsimon, diametri 20 sm, yon to'pgullari maydaroq. Erta bahorda gullaydi. Mevasi - ikki bo'lakli[5-8]. Cho'llarda o'sadi. Ildizidan olinadigan yelim (smola)dan astma va ba'zi nerv kasalliklarida ishlatiladigan dori tayyorlanadi. Kovrak respublikamizning Toshkent, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Navoiy, Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasining qumli cho'llar, adirlar, tog'lar va tog'oldi yalangliklarda, soz tuproqli yerlarda o'sadi[9-12].

Tabiatda sassiq kovrak (Ferula assa-foetida L.) keng tarqalgan bo'lib, yelim-smola asosan shu turdan olinadi. Bu dorivor o'simlik tabobatda bemor organizmiga ijobiy ta'sir etuvchi biologik faol modda hisoblanadi. Dorivor vositalar sifatida o'simliklarning ildizi, bargi, po'stlog'i, guli, mevasi, shirasi va boshqa qismlaridan foydalaniladi[13-15].



Kovrak urug'ining qaynatmasi (urug'i xuddi supurginikiga o'xshash malla rang, shakli ham shunga o'xshab ketadi) 3 mahal 50 grammdan ichilsa, ona suti ko'payadi. Shirasiga anjir qo'shib yeyilsa, sariq (gepatit) kasalligini tuzatadi. Yelimiga murch, sirka qo'shib, yomon sifatli yaralarga surilsa, foyda qiladi. Soch to'kilishiga ham o'ta foydalidir 1-rasmda keltirilgan.

Kovrakning yelim-smolasi xalq tabobatida o'pka sili, o'lat, zaxm, ko'k-yo'tal, tish og'rig'i, asab va boshqa kasalliklarni davolash uchun, hamda quvvat beruvchi, balg'am ko'chiruvchi va gijja haydovchi dori sifatida qo'llaniladi. Ilmiy meditsinada kovrak yelim-smolasi – "assafetida" nomi bilan kukun, emulsiya va tindirma (nastoyka) holida og'riq qoldiruvchi, balg'am ko'chiruvchi, quvvat beruvchi va tinchlantiruvchi vosita sifatida ishlatiladi va ko'pgina davlatlar farmokopeyasiga kiritilgan.



Sharq mamlakatlarida Eron, Pokiston, Afg'oniston va Hindiston kovrak shirasi va ildizi oziq-ovqat sanoatida ziravor sifatida, kosmetika sanoatida attorlik vositalari ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Kuhiston kovragi kabi turlari ishlatiladi. Sassiqli kovrakning bo'yi 1 metr yo'g'on ichi kovrak yuqori qismi shoxlangan. Poyalari maydaroq ketma ket joylashgan erta bahorda gullaydi. Mevasi 2 bo'lakli o'sadi. Ildizidan olinadigan yelim smoladan astma va bazi nerv kasalliklarda ishlatiladigan dori tayyorlanadi. Malumki, dunyo miqiyosida farmasevtika korxonalarida ishlab chiqarilayotgan dori vositalarining taxminan 50% dorivor o'simliklar xomashyosidan bo'lgan talabni keskin oshishiga sabab Sassiqli kovrak "anjudan" nomli o'simlikning shirasi bo'lib misrda uni abu kabir deb atashadi. Eng sifatli kovrak yelim smolasi bu qizil, kuchli xidi (sarimsoq piyoz kabi) bor kovrakdir. Bazilar ana shu xidi sababli xush ko'rishmaydi. Boshqa kovrak turlarini bundan ham kuchli noxush xidi bo'ladi. Kovrak o'ziga tortish xisiga ega bo'lib go'sht xajmini kichraytiradi va uni titkilab tashlaydi. Boshqa daraxt shiralari nisbatan uning tabiati eng issiq va eng siyrak shuning uchun u kuchli so'rish tasiriga egadir.

Kovrakning foydasi judayam ko'p. Qadimda odamlar eng ko'p uning bazi foydali tomonlari xaqida yaxshi bilishgan, qolgan foydasi xaqida esa diyarli xech qanday



ma'lumot yo'q. Sassiqlik kovrak shilimshiq chiqadigan balg'am tashlatadigan ta'sirga ega ko'krak qafasini tozalab ovozi tiniqlashtiradigan agar uni suvda etitib ichsa xirillagan ovoz ochiladi bundan tashqari u surunkaliyo'tal va xronik ovoz xirillashishga qarshi yordam beradi. Zaharga qarshi dori kovrak davo xisoblashadi .Kovrakni zahar tasirida qarshi ximoya sifatida ichish mumkin.

Shuningdek zaxarlangan o'q uchi yetkazgan ochiq jaroxatlarga xam uni surib zaxar tasirini yo'q qilish mumkin , chayon chaqqanda esa uni iliq o'simlik moyiga qoshib aralashtirib chaqqan joyga surtish kerak. Kovrak ko'rish qobilyatini yaxshilaydi, katarakta ko'z kasalliklari va shishlarini davolaydi. Agar tez -tez yoshlansa ko'zyoshlarni oldini oladi, davolaydi, Agar uni yimirilgan tishga qo'ysa u o'g'riqni oldini oladi. U quloq og'riqlarini, quloqning yiringlashishi, karlik, quloqning shang'illashini davolaydi- bu uchun uni moyda qaynatib quloqqa tomizish shart. Kovrak artitit va bo'g'im og'rig'ini davolashda yordam beradi. U asab kasalliklarini davolashda samarali vosita xisoblanadi .

Masalan yuz falaji bor bemorlarda uni yuz terisiga surtib singdirmoq kerak. oddiy falajlik va bel og'riqlarida asablar zaiflashganda ham yordam beradi agar uni suyuqlik dori sifatida ichsa yoki malham dori sifatida surtsa son boldirlarga og'riqlarni bartaraf etadi.

Sassiqlik kovrak qonni tozalaydi va bezgakni yo'q qiladi ichga qabul qilganda kovrak boldirlarni chiqaradi qorin bo'shlig'ida turib qolgan qonni tozalaydi. Kovrakni juda ko'p ajoyibotlari bor, sanchiqlarni yoq qiladi surunkali deariyada aziyat chekayotgan bemorlar uni 2 gr miqdorda tanovvul qilib dardlaridan qutilishlari mumkin ichaklardagi yaralarni davolashda yordam beradi ichdagi qurtlarni chiqaradi.



Bundan tashqari, u jigar va oshqozon uchun ham foydalidir . U ichki shishlarni jumladan zararli suyuqliklarni so'rishda yordam beradi. Istiqso sariq kasali bor



bemorlarda taloq shamollashini davolaydi .va organizimda ushlanib qolgan zararli bug'larni (bod va suyuqlik zarrachalarini chiqartiradi).

Xulosa. Kavrak turli xil xafli va qattiq bo'lib qolgan o'smalarni yo'q qilishda ko'maklashadi.Xozirgi kunda tibbiyot saraton va boshqa kasalliklarni davolashda kovrakdan foydalanib kelmoqda va bu yaxshi natejalarni berib kelmoqda.

Kosmitalogiya soxasida undan temiratki sepkil so'gal va chandiqlarni yo'q qilishda keng ko'lamda foydalaniladi. Alopesiya (soch to'kilishi) da esa u istimol sirkasiga aralashtirilib qo'llaniladi.

Ibn Sino bobomiz bu o'simlikka shundat ta'rif bergan. Kovrak urug'ining qaynatmasi 3 maxal 50 gr ichilsa suti ko'payadi gepatit kasalligi tuzatiladi deb olingan shirasiga anjir qo'shib yeyilsa gepatet kasalligi tuzatiladi deb aytishgan .

O'zbekistonda 1kg kovrak urug'i 200\$ ga baholanadi .Bu o'simlik ekilgandan keyin 8oydan 5 yilgacha ildizi qalinlashadi .va keyin undan bemalol foydalana olamiz o'simlik shirasidan yelim shirasidan farmasevtikadan keng foydalanib kelinmoqda 2-rasmda keltirilgan.

Hindiston davlatiga eksport qilinganda ular dori darmon va ziravorlar tayyorlashda keng foydalanilmoqda 1 gektar maydon uchun 200\$ va 250\$ dollorga urug' sotib olib 1 gektar maydonga ekilganida 100.000\$ daromad ko'riladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Orifxonova M Toshkent, Fan nashriyoti. 2019 - yil 345- bet
2. Guinness book of records progress ,1991 Indiana University .2009
3. Internet manbalari
4. [https://t.me/Fanlar Akademiyasi](https://t.me/Fanlar_Akademiyasi)
5. <https://uz.m.wikipedia.org> 6. <https://uzpharmagency.uz//xs.uz> 7. <https://www.uznature.uz>
6. Н.И.Файзуллаев, И.И.Мамадолиев. Юқори кремнийли цеолитнинг фаолланиш шароитини мақбуллаштириш //Научный вестник Самаркандского государственного университета. 2019. № 3(115).С 8-12.
7. Mamadoliev Ikromjon Ikhomidinovich. Study Of The Sorption And Textural Properties Of Bentonite And Kaolin // Austrian Journal of Technical and Natural Sciences Scientific journal 2019. № 11–12. С 33-38.
8. I.I. Mamadoliev, N.I. Fayzullaev. Optimization of the Activation Conditions of High Silicon Zeolite // International Journal of Advanced Science and Technology IJAST Journal. Vol. 29, No. 03, (2020), pp. 6807 – 6813
9. I.I.Mamadoliev., N.I. Fayzullaev, K.M. Khalikov. [Synthesis of high silicon of zeolites and their sorption properties](#)//International Journal of Control and Automation Vol. 13, No. 2, (2020), pp. 703 - 709 IJCA



10. N.I. Fayzullaev., I.I. Mamadoliev. Mahalliy Xomashyolardan Olingan Yuqori Kremniyli Seolitli Sistemalarining Xarakteristikalarini// Научный вестник Самаркандского государственного университета. 2020-yil, 1 (119) 52-56 б.
11. Fayzullaev N. I Mamadoliev I.I Pardaeva S.B. Research Of Sorption Properties Of High Silicon Zeolites From Bentonite // ACADEMICIA An International Multidisciplinary Research Journal. Vol. 10 Issue 10, Oct 2020 pp 244-251.
12. Fayzullaev N.I., Mamadoliev I.I., Pardaeva S.B., Barakayeva M. N Synthesis Of High Silicon Zeolites From Kaolin And Bentonite// The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. **March 26, 2021.pp 30-36**
13. Мамадолиев И.И., Файзуллаев Н.И., Юсупова С.С. Текстурные Свойства Высококремниевых Цеолитов Полученные Из Навбахорского Бентонита // Universum: химия и биология: электрон. научн. журн. 2021. 10(88).С 61-67.
14. Мамадолиев Икромжон Илхомидинович. Study Of Texture Characteristics Of Unmodified And Modified Bentonite// Universum: технические науки: электрон. научн. журн. Выпуск: 2(95) Февраль. Часть 7 Москва 2022 с 48-51.
15. И.И. Мамадолиев, Д.Х. Очилов, Н.И. Файзуллаев. Получение Высококремнистых цеолитов из каолина// Universum: технические науки: электрон. научн. журн. Выпуск: 6(99) июнь. Часть 8 Москва 2022 с 15-20.

